

Azamat Axmedov, Behzod Sharipov

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

IJTIMOY BIZNES LOYIHALARNI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI TA'MINLASH

Annotatsiya. Maqolada biznes loyihalarni moliyalashtirishning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, ularning samarali tashkil etish uslub va usullari, sohalarni raqamlashtirish imkoniyatlari atroflicha bayon etilgan. Shuningdek, milliy va xalqaro toifadagi biznes loyihalarning rentabellik ko'rsatkichlari tahlillar asosida ko'rib chiqilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan. Ushbu tahlil natijalari raqamli transformatsiya jarayonlarida innovatsion yondashuvlarning muhimligini ko'rsatadi va moliyaviy resurslarni samarali boshqarishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. Bundan tashqari, maqolada raqamlashtirish orqali amalga oshiriladigan monitoring va baholash mexanizmlari, ijtimoiy bizneslarning barqarorligini ta'minlashda qanday rol o'ynashi alohida e'tiborga olinadi.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, biznes, ijtimoiy loyihalar, raqamlashtirish, loyiha menejmenti, samaradorlik ko'rsatkichlari, moliyaviy resurslar, ijtimoiy biznes, NPV, rentabellik ko'rsatkichlari, raqamli transformatsiya, ijtimoiy menejment, moliyaviy texnologiyalar, SWOT tahlil.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОЦИАЛЬНЫХ БИЗНЕС-ПРОЕКТОВ ЗА СЧЕТОМ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Аннотация. В статье подробно рассмотрено значение финансирования бизнес-проектов в национальной экономике, способы и методы их эффективной организации, возможности цифровизации производств. Также на основе анализа были рассмотрены показатели рентабельности национальных и международных бизнес-проектов и сделаны соответствующие выводы. Результаты данного анализа показывают важность инновационных подходов в процессах цифровой трансформации и открывают новые возможности эффективного управления финансовыми ресурсами. Кроме того, в статье особое внимание уделяется роли механизмов мониторинга и оценки, реализуемых посредством цифровизации, в обеспечении стабильности социального бизнеса.

Ключевые слова: национальная экономика, бизнес, социальные проекты, цифровизация, управление проектами, показатели эффективности, финансовые ресурсы, социальный бизнес, NPV, показатели рентабельности, цифровая трансформация, социальный менеджмент, финансовые технологии, SWOT-анализ.

ENSURING THE EFFECTIVENESS OF SOCIAL BUSINESS PROJECTS THROUGH DIGITIZATION

Abstract. The article examines in detail the importance of financing business projects in the national economy, ways and methods of their effective organization, and the possibilities of digitalization of production. Also, based on the analysis, the profitability indicators of national and international business projects were considered and appropriate conclusions were drawn. The results of this analysis show the importance of innovative approaches in digital transformation processes and open up new opportunities for effective management of financial resources. In addition, the article pays special attention to the role of monitoring and evaluation mechanisms implemented through digitalization in ensuring the sustainability of social business.

Key words: national economy, business, social projects, digitalization, project management, performance indicators, financial resources, social business, NPV, profitability indicators, digital transformation, social management, financial technologies, SWOT analysis.

KIRISH

Ijtimoiy biznes loyihalarini raqamlashtirish bugungi kunda milliy iqtisodiyot uchun juda dolzarb masala hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Raqamlashtirish, avvalo, biznes jarayonlarini optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi, bu esa ijtimoiy loyihalarining barqarorligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy biznes loyihalarini raqamlashtirish milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega, chunki BMTning 2022-yilda e'lon qilgan hisobotida raqamli iqtisodiyot global yalpi ichki mahsulotning 15% dan ortig'ini tashkil etishi[1] ta'kidlangan. Jahon Banki esa, raqamlashtirish orqali ijtimoiy bizneslar

samaradorligini 30% ga oshirish imkoniyatini ko'rsatgan[2], bu esa iqtisodiy o'sish va ijtimoiy masalalarga yechim topishda yangi imkoniyatlarni ochadi. OECD tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, raqamli transformatsiya jarayonida ijtimoiy bizneslarning rentabelligi o'rtacha 20% ga oshishi mumkin[3], bu esa raqamli yondashuvlarning ijtimoiy loyihalar uchun qanday ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, McKinsey & Company tomonidan olingan statistik ma'lumotlar, raqamli transformatsiya ijtimoiy bizneslar global iqtisodiyotga yiliga 4 trillion dollar qo'shishi mumkinligini ko'rsatib[4], raqamlashtirishning iqtisodiy ta'sirini yanada oshiradi.

Raqamli platformalar orqali ma'lumotlarni tezkor yig'ish va tahlil qilish, ijtimoiy bizneslarni muvaffaqiyatli boshqarishning asosi hisoblanadi. Bu yondashuv, o'z navbatida, ijtimoiy ta'sirni o'lchash, foydalanuvchi talablarini aniqlash va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy bizneslarning rolini kuchaytirish, ularni raqamlashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikni oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishga olib keladi.

Deloitte tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirilgan ijtimoiy biznes loyihalarining 40% dan ortig'i[5] bir vaqtning o'zida iqtisodiy foyda va ijtimoiy ta'sirni oshirishga muvaffaq bo'lmoqda, bu esa ijtimoiy muammolarni hal qilishda raqamli yondashuvlarning samaradorligini namoyish etadi. Ushbu statistik raqamlar, ijtimoiy bizneslarni raqamlashtirish jarayonining ijobiy o'zgarishlar keltirayotganini ko'rsatadi va ularni rivojlantirish zarurligini bildiradi. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy bizneslarni faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki ijtimoiy mas'uliyat nuqtai nazaridan ham samarali qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuning uchun, ijtimoiy bizneslarni raqamlashtirishning ahamiyati zamonaviy iqtisodiy sharoitda yanada oshib bormoqda. Bundan tashqari, raqamlashtirish ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga va keng jamoatchilikning ishtirokini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon, milliy iqtisodiyotning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda, jamiyatning turli qatlamlarini o'z ichiga olgan holda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ijtimoiy biznes loyihalarini raqamlashtirishning ahamiyati va dolzarbligi zamonaviy iqtisodiy sharoitda yana-da kuchaymoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy biznes loyihalarini raqamlash, ya'ni raqamli ma'lumotlardan foydalangan holda ularning samaradorligini oshirish va monitoring qilish juda muhim. Raqamlashtirish, iqtisodiyotdagi resurslarni samarali boshqarish, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarga asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonidir. Hozirgi kunda ijtimoiy bizneslar raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish orqali o'z faoliyatlarini yanada samarali va tezkor amalga oshirmoqdalar. Nobel mukofoti sohibi Muhammad Yunus, ijtimoiy biznesni - ijtimoiy muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuv sifatida ta'riflaydi. U raqamlashtirishning, masalan, mikroqarz berish tizimlarida unumli qo'llanilishi orqali ijtimoiy bizneslarning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ta'kidlaydi[6]. Ijtimoiy biznes loyihalarini raqamlash, ularning samaradorligini oshirish va ijtimoiy ta'sirini aniqlash uchun zarurdir.

Raqamli ma'lumotlarni to'plash jarayoni, loyiha ishtirokchilari, xarajatlar va daromadlar haqidagi ma'lumotlarni yig'ishni o'z ichiga oladi. Iqtisodchi P. Drucker "O'lchashni boshlanganda, siz boshqarishni boshlaysiz"[7] deb ta'kidlaydi. Bu fikr ijtimoiy bizneslar uchun juda muhim, chunki ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilish samaradorlikni oshiradi. Harvard Business School profesori Michael Porter va nufuzli iqtisodchi Heppelmann raqamli transformatsiyaning raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyatini o'rganib, raqamli strategiyalar orqali ijtimoiy bizneslar samaradorligini oshirish va ijtimoiy ta'sirni kengaytirish mumkinligini ta'kidlaydi[8]. Shuningdek, raqamli platformalar, masalan, CRM tizimlari va loyihani boshqarish dasturlari, ijtimoiy bizneslar uchun samarali vositalardir. Ular loyiha jarayonlarini boshqarishni yengillashtiradi va ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Iqtisodchi M. Porter "Raqobat ustunligi raqamli texnologiyalar orqali yaratiladi"[9] deb qayd etadi.

Nobel mukofoti sohibi Joseph Stiglitz, raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy bizneslar o'rtasidagi bog'lanishni o'rganib, raqamli texnologiyalar yordamida ijtimoiy bizneslarning samaradorligini oshirish uchun ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilishning muhimligini ta'kidlaydi[10]. Ijtimoiy biznes loyihalarini raqamlash jarayoni ularning samaradorligini oshirish, ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish va ijtimoiy ta'sirni o'lchashda muhim ahamiyatga ega.

Raqamli analitika orqali loyiha samaradorligini baholash va natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlash muhimdir. Iqtisodchi R. Kaplan O'lchovlar biznes

strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi[11] deb ta'kidlaydi (Kaplan & Norton, 1996). Bu ijtimoiy bizneslar uchun ham shunday, chunki to'g'ri hisobotlar yordamida kelgusi rejalashtirish amalga oshiriladi. Raqamli texnologiyalar yordamida ijtimoiy bizneslar o'z faoliyatlarini yanada samarali va o'zgaruvchan muhitga mos ravishda boshqarish imkoniga ega bo'ladilar.

Iqtisodchi olim Shukhrat Ruziev ijtimoiy biznes va raqamli iqtisodiyot o'rtasidagi sinergiyani ko'rib chiqadi. U ta'kidlashicha, "Raqamli texnologiyalar ijtimoiy loyiha samaradorligini oshirish jarayonida qiyin sharoitlarda muhim bir vosita sifatida xizmat qiladi, chunki ular real vaqt rejimida o'zgaruvchan ma'lumotlarga kirish imkonini ta'minlaydi va bu esa o'z navbatida loyiha boshqaruvining fleksibilitesini oshiradi"[12]. Raqamli texnologiyalar yordamida ma'lumotlarni tezkor va samarali boshqarishning ahamiyatini ortib bormoqda. Real vaqt rejimida ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali ijtimoiy loyihalar yanada moslashuvchan va samarali bo'ladi.

G.Shukurova ijtimoiy loyihalarning zamonaviy raqamli platformalar orqali boshqarilishini zarur deb hisoblaydi. U shunday deydi: "Raqamli platformalar, o'zlarining integratsiyalashgan xususiyatlari bilan, loyiha boshqaruvini soddalashtirish imkoniyatini yaratadi va ishtirokchilarning ma'lumotlarini samarali tahlil qilish imkoniyatini beradi, bu esa loyiha jarayonining shaffofligini ta'minlaydi"[13]. Bizningcha, raqamli platformalar yordamida loyihalarni boshqarish jarayonini yanada soddalashtirish va ishtirokchilar o'rtasida ma'lumot almashinuvi shaffofligini oshirish uchun zarur ekanligini ko'rsatadi.

F.Abdug'aniyev o'z tadqiqotlarida raqamli vositalarning ijtimoiy ta'sirni o'lchash va tahlil qilishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. "Ijtimoiy loyiha samaradorligini baholashda raqamli asbob-uskunalaridan foydalanish, albatta, ijtimoiy loyiha muvaffaqiyatini yanada oshiradi, shuningdek, resurslarni optimallashtirishga yordam beradi,"[14] Raqamli vositalar ijtimoiy loyiha samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega, chunki ular orqali resurslardan oqilona foydalanish va natijalarni o'lchash imkoniyatlari yaratiladi.

Sardorbek Abdullayev "ijtimoiy biznes loyihalari raqamli iqtisodiyot asosida mustahkamlanishi lozim, bu esa o'z navbatida, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi,"[15] deb ta'kidlaydi, va bu jarayonlar orqali iqtisodiy taraqqiyotning yangi imkoniyatlari ochilishini ko'rsatadi. Ijtimoiy bizneslarni raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashishining iqtisodiy barqarorlikni

ta'minlashdagi roli borligini ko'rsatadi, bu esa taraqqiyotning yangi yo'nalishlarini ochadi.

O'zbekistonlik olimlar ijtimoiy biznes loyihalarini raqamlash jarayonining ahamiyatini chuqur tahlil qiladilar va bu jarayon ijtimoiy ta'sirni o'lchash, loyiha samaradorligini oshirish va innovatsiyalarni joriy etishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan ishlar ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga salmoqli hissa qo'shadi.

Yuqoridagi ta'riflar va xulosalardan kelib chiqqan holda, mamlakatdagi ijtimoiy biznes loyihalarini samarali amalga oshirish orqali bir qator muammolarni, kambag'allik darajasini kamaytirish, aholining turli qatlamlariga sifatli ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, aholi daromadlarni oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ijtimoiy biznes loyihalarni samarali tashkil etish, biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari borasida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish va tahlil kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek ijtimoiy biznes loyihalarni raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirishdagi mavjud muammolar va ularni yechimlari, bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy biznes loyihalarini raqamlash orqali samaradorlikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirni kuchaytirishga qaratilgan strategiyalarning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar yordamida yig'ilgan ma'lumotlar, loyiha boshqaruvini samarali amalga oshirishga imkon yaratib, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati, loyiha natijalarini baholash va ishtirokchilarning o'zaro aloqalarini kuchaytirishga xizmat qiladi, bu esa shaffoflikni oshiradi. Shuningdek, raqamlashtirish orqali resurslardan samarali foydalanish va isrofni kamaytirish imkoniyatlari yaratiladi, bu iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi. Nihoyat, ijtimoiy

biznes loyihalarini raqamlash jarayoni, nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki jamiyatning ijtimoiy farovonligini oshirishga ham yordam beradi, bu esa uzoq muddatli ijtimoiy taraqqiyotga olib keladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish — bu iqtisodiyotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali samaradorlikni oshirish va jarayonlarni avtomatlashtirishni anglatadi. Ushbu jarayon raqamli iqtisodiyotga o'tishni ta'minlab, ish faoliyatini yanada tezkor, shaffof va samarali qiladi. Asosiy yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Raqamli infratuzilma – bu texnologik infratuzilmaning yaratilishi va rivojlantirilishi bo'lib, internet xizmatlari, axborot tizimlari, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) o'z ichiga oladi. Bularning barchasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning ajralmas qismi hisoblanadi.

2. Raqamli transformatsiya – davlat boshqaruvidan tortib ishlab chiqarishgacha bo'lgan sohalarda yangi texnologiyalarni joriy qilish, jarayonlarning samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga imkon yaratadi.

3. Innovatsion iqtisodiyot – raqamli texnologiyalar yangi xizmatlar va mahsulotlar yaratilishini ta'minlaydi, bunda tadbirkorlik imkoniyatlari kengayadi va innovatsiyalar tezroq joriy qilinadi.

Raqamlashtirish jarayoni ayniqsa ijtimoiy loyihalarda samaradorlikni oshirish va ularning keng ko'lamda amalga oshirilishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Bunda raqamli texnologiyalar quyidagi sohalarda sezilarli rol o'ynaydi:



1-rasm. Ijtimoiy loyihalarda samaradorlikni oshirishda raqamlashtirish

Raqamlashtirish sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy himoya kabi sohalarda resurslarni samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Masalan, sog'liqni saqlash tizimida raqamli tibbiy kartalar, telemeditsina va sun'iy intellektdan foydalanish

bemorlarni masofadan boshqarish va ularning sogʻligini doimiy nazorat qilish imkoniyatini taʼminlaydi. Bu orqali qimmat tibbiy xizmatlarga boʻlgan ehtiyoj kamayadi, vaqt va resurslar tejab qolinadi.

Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy loyihalarning ahamiyati mazkur iqtisodiy tizimning barqarorligini taʼminlashda va ijtimoiy adolat tamoyillarini amalda joriy etishda muhim omil sifatida namoyon boʻladi. Ijtimoiy loyihalar, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy notekisliklarni bartaraf etish, aholining zaif qatlamlarini qoʻllab-quvvatlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda umumiy farovonlikni oshirishga yoʻnaltirilgan iqtisodiy vositalar majmuini oʻz ichiga oladi.

1-jadval

Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy loyihalarning ahamiyati [16-21]

Mamlakat	Ijtimoiy loyiha turi	Ahamiyati	Iqtisodiy taʼsiri
AQSH	Taʼlim Dasturlari	Ijtimoiy tenglikni oshirish	Iqtisodiy oʻsishni 2% ga oshirish
Xitoy	Sogʻliqni Saqlash Loyihalari	Aholining farovonligini taʼminlash	Iqtisodiy oʻsishni 6% ga oshirish
Yaponiya	Ijtimoiy Xizmatlar	Aholi farovonligini oshirish	Iqtisodiy samaradorlikni 4% ga oshirish
Janubiy Koreya	Ijtimoiy Tadbirkorlik	Yangi ish oʻrinlari yaratish	Iqtisodiy oʻsishni 5% ga oshirish
Kanada	Ijtimoiy Dasturlar	Ijtimoiy adolatni taʼminlash	Iqtisodiy oʻsishni 2.5% ga oshirish
Yevropa	Raqamli Ijtimoiy Loyihalar	Ijtimoiy barqarorlikni oshirish	Iqtisodiy oʻsishni 3% ga oshirish
Avstraliya	Ish Oʻrinlarini Yaratuvchi Dasturlar	Ijtimoiy muammolarni hal qilish	Iqtisodiy barqarorlikni taʼminlaydi
Germaniya	Ijtimoiy Hamkorlik	Ijtimoiy integratsiyani oshirish	Iqtisodiy oʻsishni 2% ga qoʻshadi
Frantsiya	Qishloq Rivojlantirish Loyihalari	Aholining farovonligini oshirish	Iqtisodiy barqarorlikni taʼminlaydi
Niderlandiya	Sogʻliqni Saqlash Loyihalari	Sogʻliqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish	Iqtisodiy samaradorlikni 3% ga oshiradi
Norvegiya	Energiya Samaradorligi Loyihalari	Ekologik barqarorlikni taʼminlash	Energiya iqtisodiyotida 4% ga oʻsish

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan rivojlangan davlatlarning ijtimoiy loyihalari, milliy iqtisodiyotda ahamiyatini koʻrsatadi. Har bir mamlakatda ijtimoiy loyihalar turli sohalarida (taʼlim, sogʻliqni saqlash, qishloq rivoji) ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy oʻsishni taʼminlash uchun muhim vosita sifatida faoliyat yuritmoqda. Ijtimoiy loyihalar, shuningdek, yangi ish oʻrinlarini yaratish, ijtimoiy adolatni taʼminlash va aholi farovonligini oshirishda yordam beradi. Ijtimoiy loyihalarning iqtisodiy taʼsiri har bir mamlakatda farq qilishi mumkin, lekin

umumiy tendensiya shundaki, ijtimoiy investitsiyalar, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy biznes loyihalari muhim rol o'ynaydi, chunki ular yosh tadbirkorlar va yangi g'oyalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Kichik va o'rta biznesning rivojlanishi mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yordam beradi. Aholi bandligi va daromadlarining oshishi, shuningdek, yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali ishsizlik darajasining kamayishiga olib keladi. Chet el investitsiyalarining jalb etilishi esa tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur moliyaviy resurslar oqimini ta'minlaydi.

9-jadval

O'zbekistonda ijtimoiy biznes loyihalarining samaradorligi muammolari bo'yicha takliflar

Muammo	Tahlil	Taklif	Yechim
Moliyaviy resurslar yetishmasligi	Yangi biznes loyihalarni boshlash uchun ko'plab tadbirkorlarda kapital yetishmaydi, bu esa loyihalarining samaradorligiga ta'sir qiladi.	Kredit olishni yengillashtirish va shaffof shartlar ta'minlanishi. Davlat tomonidan grant va subsidiyalar ajratilishi.	Moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, ularga ko'proq sarmoya kiritish. Davlat tomonidan past foizli kreditlar taklif etish.
Kadrlar yetishmovchiligi	Malakali kadrlarning kamligi, ayniqsa boshqaruv sohasida yetuk kadrlar yetishmasligi loyihalarining muvaffaqiyatsiz bo'lishiga sabab bo'ladi.	Kadrlarni malaka oshirish kurslariga jalb qilish va bilim almashishni rag'batlantirish.	O'quv kurslari va malaka oshirish dasturlari yaratish. Kadrlar yetishmovchiligini qisqartirish uchun xalqaro va mahalliy tajribani jalb qilish.
Innovatsion g'oyalar yetishmasligi	Yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarning kamligi loyihalar samaradorligiga ta'sir qiladi.	Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun grant dasturlarini kengaytirish. Ilg'or texnologiyalarni tatbiq etishda xalqaro tajribani o'rganish.	Texnologiyalar transferini rag'batlantirish va texnoparklar yaratish. Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish.
Yangi bozorlarga chiqish qiyinligi	Xalqaro bozorga chiqishda tajriba va resurs yetishmasligi loyihalarining samaradorligini pasaytiradi.	Xalqaro savdo forumlarini o'tkazish va mahalliy tadbirkorlarni chet el bozorlariga tayyorlash.	Eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, xalqaro bozorlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatish uchun treninglar va seminarlar tashkil qilish.
Davlat tartibga solishining murakkabligi	Litsenziyalash, soliqqa tortish, byurokratik jarayonlarning murakkabligi ko'pincha loyihalarni sekinlashtiradi.	Davlat tartibga solish jarayonlarini soddalashtirish va tadbirkorlar uchun yengillashtirilgan tartiblarni ishlab chiqish.	Biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini tezlashtirish, soliqlarni kamaytirish va tartibni soddalashtirish orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilash.

O'zbekistonda ijtimoiy biznes loyihalarining samaradorligini oshirish uchun muhim qadamlar talab etiladi. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi loyihalarining boshlanishini cheklamoqda, shuning uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida past foizli kreditlar va subsidiyalar taqdim etilishi zarur. Malakali kadrlar yetishmovchiligi ham loyihalar muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir qiladi, shuning uchun malaka oshirish dasturlarini kengaytirish dolzarbdir. Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish iqtisodiyotning zamonaviylashishiga xizmat qiladi. Davlat tartibga solish jarayonlarini soddalashtirish orqali esa yangi tadbirkorlik subyektlari sonini oshirish va loyihalarining tezroq amalga oshirilishini ta'minlash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy biznes loyihalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular yosh tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi va yangi g'oyalarni amalga oshirishga yordam beradi. Kichik va o'rta biznesning rivojlanishi mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga zamin yaratadi, bu esa iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samaradorlikni ta'minlaydi.

Aholi bandligi va daromadlarining oshishi yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi, shuningdek, ishsizlik darajasini kamaytirish uchun muhim omil bo'lib qolmoqda. Chet el investitsiyalarining jalb etilishi tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga yordam beradigan moliyaviy resurslar oqimini ta'minlaydi, bu esa iqtisodiy o'sish uchun zarurdir. Shu bilan birga, davlat tomonidan taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari va byurokratik jarayonlarning soddalashtirilishi tadbirkorlik muhitining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy biznes loyihalarining muvaffaqiyati uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kadrlar yetishmovchiligi va innovatsion g'oyalar yetishmasligi kabi muammolarni hal etish zarur, shuning uchun kredit olishni yengillashtirish va grantlar ajratish tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Malakali kadrlar tayyorlash va ularga malaka oshirish kurslarini taqdim etish, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish iqtisodiyotning zamonaviylashishini ta'minlaydi.

Soliq imtiyozlari va byurokratik jarayonlarning soddalashtirilishi biznesning muvaffaqiyatida asosiy omil bo'lib, mahalliy va xalqaro hamkorlikning kengayishi, innovatsion mahsulotlar yaratish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Natijada, O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning jadal rivojlanishi iqtisodiy o'sishga va aholi farovonligining yuksalishiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Yangi bozorlarga chiqish qiyinchiliklari va davlat tartibga solishining murakkabligi ham muhim muammolar sifatida qolmoqda, shuning uchun xalqaro savdo forumlari va tadbirkorlar uchun tayyorgarlik dasturlarini amalga oshirish zarur. Umuman olganda, O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning jadal rivojlanishi iqtisodiy o'sishga va aholi farovonligining yuksalishiga sezilarli hissa qo'shmoqda, shuning uchun ushbu yo'nalishda ijtimoiy biznes loyihalarini rag'batlantirish va rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2021). The Digital Economy Report 2021. <https://www.un.org/development/desa/dpad/publication/digital-economy-report-2021/>
2. Jahon Banki. (2021). World Development Report 2021: Data for Better Lives. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2021>
3. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti. (2022). Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives. <https://www.oecd.org/digital/going-digital/>
4. McKinsey & Company. (2022). The Global Digital Economy: A 2022 Perspective. <https://www.mckinsey.com/featured-insights/future-of-work/the-global-digital-economy>
5. Deloitte. (2022). 2022 Global Human Capital Trends. <https://www2.deloitte.com/global/en/pages/human-capital/topics/global-human-capital-trends.html>
6. Yunus, M. (2010). Building Social Business: The New Kind of Capitalism That Serves Humanity's Most Pressing Needs. PublicAffairs.
7. Drucker, P. (2007). The Effective Executive. HarperBusiness. p. 250
8. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. Harvard Business Review.
9. Porter, M. (2001). Strategy and the Internet. Harvard Business Review, 79(1), p. 62-78.

10. Stiglitz, J. E. (2014). The Price of Inequality: How Today's Divided Society Endangers Our Future. W.W. Norton & Company. p. 421
11. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Harvard Business Review Press.
12. Ruziev, Sh. (2021). Ijtimoiy biznes va raqamli iqtisodiyot: sinergiya va imkoniyatlar. O'zbekiston Milliy Universiteti. O'zbekiston Iqtisodiyoti Jurnal. 45-60 betlar
13. Shukurova, G. (2020). Zamonaviy raqamli platformalar va ijtimoiy loyihalar boshqaruvi. Tashkent State University of Economics. Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnal. 32-48 betlar.
14. Abdug'aniyev, F. (2022). Ijtimoiy ta'sirni o'lchash va raqamli vositalar: O'zbekiston misolida. O'zbekiston Iqtisodiyot va Statistika Universiteti. Ijtimoiy Innovatsiyalar Jurnal. 15-30-betlar.
15. Abdullayev, S. (2023). Ijtimoiy bizneslar va raqamli iqtisodiyot: istiqbollar va muammolar. Tashkent State Institute of Finance. Moliya va Iqtisodiyot Jurnal. 70-85-betlar
16. Sachs, J. (2020). The Importance of Social Investment for Economic Growth. Global Economic Review. p. 15-29.;
17. Hu, A. (2021). Social Projects and Economic Stability in China. Asian Economic Policy Review. p. 45-58.;
18. Sen, A. (2020). Social Investments in Education and Health in India. Journal of Development Economics. p. 10-25.;
19. Noda, Y. (2022). The Role of Social Programs in Japan's Economic Growth. Japanese Economic Review. p. 35-50.;
20. Sung-Jin, J. (2021). Social Projects and Economic Resilience in South Korea. Korean Economic Journal. p. 60-75.;
21. O'Meara, J. (2020). Social Investments and Economic Growth in Canada. Canadian Journal of Economics. p. 22-37.;
22. Schwab, K. (2022). Social Projects and Digital Transformation in Europe. European Business Review. p. 80-95.